

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJning  
2022 yil “22” - iyundagi JO-42 - sonli

Buyrug‘iga

ILOVA

**“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ xodimlarining korporativ etika  
(odob-axloqi)  
KODEKSI**

**1. Umumiy qoidalar**

**1.1.** “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat deb yuritiladi) xodimlarining korporativ etika (odob-axloqi) Kodeksi Jamiyatning ichki meyoriy hujjatlari talablari asosida ishlab chiqilgan.

**1.2.** “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ xodimlarining korporativ etika (odob-axloqi) Kodeksi (keyingi o‘rinlarda Kodeks deb yuritiladi) Jamiyat xodimlarining xizmat ko‘rsatish madaniyati, odob-axloqiga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi va u bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

**1.3.** Jamiyat xodimlari o‘z faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari hamda mazkur Kodeks talablariga asoslanadi.

**1.4.** Mazkur Kodeks Jamiyatning barcha xodimlari rioya etadigan odob-axloqning asosiy etik meyorlarini belgilab beradi.

**1.5.** Mazkur Kodeksning bajarilishi Jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan hamkasblari bilan munosabatlarda, shuningdek istyemolchilarga elektr energiyasini sifatli yetkazib berish bo‘yicha xizmat ko‘rsatishda kasb odob-axloqiga rioya etishlari, ularning kasbiy mahorati hamda umumqabul qilingan odob-axloq meyorlariga muvofiqligini ta‘minlaydi.

**1.6.** Kodeks – egallab turgan lavozimidan qat‘i nazar barcha xodimlarning istyemolchilar, xodimlar, aksiyadorlar, shuningdek boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo‘lgan munosabatlarda tartibga soluvchi ta‘sirga ega bo‘lgan odob-axloqining umumiy prinsiplari va xulq-atvorining asosiy qoidalari yig‘indisi hisoblanadi.

**1.7.** Kodeks Jamiyat xodimlarida yuksak huquqiy ongini va Jamiyatning korporativ madaniyatini shakllantirishga, Jamiyatning imidji va obro‘cini saqlash va yuksaltirishga yo‘naltirilgan.

Jamiyat tizimiga ishga kirayotgan, shuningdek Jamiyatda amaliyot o‘tayotgan barcha shaxslar Kodeks bilan tanishtiriladi va mazkur Kodeksning talablariga rioya etishlari shart.

**1.8.** Kodeksga rioya etish Jamiyat xodimlarining kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

**1.9.** Kodeksga rioya qilish Jamiyatning ijro apparati, tarkibiy korxonalari hamda tasarrufidagi filiallarining barcha xodimlari uchun majburiydir.

**1.10.** Mazkur Kodeksda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

*Etika* – o‘z mohiyatiga ko‘ra insonga tashqaridan baho berish, insonning mavjud hislatlarini tahlil qilib ko‘rsatishdir.

*Odob* – bu insonning xulq atvori, go‘zal muamalasi hamda insoniyligidir.

*Xulq* – oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan xatti-harakatlarning majmui.

*Axloq* – inson va jamiyat o‘rtasidagi obyektiv a‘loqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan mayyan xulq atvor, adob, xatti-harakatlar majmui.

## **2. Kodeksning asosiy prinsiplari**

**2.1** Jamiyatning barcha xodimlari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:

- adolatlik, halollik;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;
- shaxsiy mas‘uliyat;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- Jamiyatning umumiy manfaatlari haqida qayg‘urishlik;
- Jamiyatning yuksak ishchanlik imidji, sha‘ni va obrg‘isini saqlash;
- barcha jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarini qonun hujjatlari, axloq-odob va etika normalari talablariga rioya qilgan holda hurmat va ishonch asosida o‘rnatish.

### **3. Jamiyat xodimlarining xizmat ko‘rsatishda o‘zini tutish qoidalari**

**3.1** Jamiyat xodimlari o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish va lavozim majburiyatlarini bajarish jarayonida amaldagi qonun hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga, jamoa shartnomasiga hamda mazkur Korporativ etika Kodeksiga qat‘iy rioya qilishi lozim.

**3.2** Jamiyat xodimlarining siyosiy, diniy va iqtisodiy qarashlari, shuningdek boshqa shaxsiy vajlari Korporativ etika Kodeksini buzishga asos bo‘la olmaydi.

### **3.3** Jamiyat xodimlari:

- korporativ madaniyat va xulq odobini namoyon etuvchilar hisoblanadi;
- hamkasblari va iste‘molchilar bilan muloqot davrida xushmuomala va e‘tiborli bo‘ladi;
- Jamiyat tizimining yaxshi an‘analarini saqlab, korxonada yangi ish boshlagan xodimlarga ushbu an‘analarni, kasbiy tajriba va ko‘nikmalarni yetkazadi;

- bank yoki uning mijozlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan axborotning tarqatilishiga yo'l qo'ymaydi;

- shaxsiy manfaat yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniniy manfaatlarini qondirish uchun xizmat mavqeidan foydalanmaydi.

### **3.4 Jamiyat rahbar xodimlar:**

- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'radi;

- korrupsiyaning oldini olish choralari ko'radi;

- xodimlarni ijtimoiy-huquqiy g'imoya qilish choralari ko'radi.

### **3.5 Jamiyat xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda quyidagilarga majbur:**

- Kodeks talablariga qat'iy rioya etish;

- o'z faoliyatini qonun hujjatlaridava ichki hujjatlarida belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;

- ijtimoiy tarmoqlarda axloqqa zid iboralari ishlatmaslik, Jamiyat nufuziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan foto, video va matnli materiallarni joylashtirmaslik;

- boshqa tashkilotlar xodimlari va fuqarolar bilan munosabatlarda ishchanlik uslubida rioya qilgan holda, professionallik va bosiqlikni namoyon qilish;

**3.6** Ishga alkogol ichimliklar, narkotik, psixotrop va toksin moddalarni iste'mol qilib kelishi yoki ish jarayonida iste'mol qilishi taqiqlanadi. Shuningdek, Jamiyat xodimlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

**3.7** Jamiyat xodimlarning lavozim majburitlarida Kodeksga rioya etilishini ta'minlash majburiy tartibda kiritilishi shart.

## **4. Jamiyat xodimlarining iste'molchilar bilan munosabatga kirishishda o'zini tutish qoidalari**

**4.1** Iste'molchilar bilan muloqot o'rnatishda xodimlar umumqabul qilingan yagona mazmundagi ibora va so'zlarni ishlatishlari lozim.

**4.2** Xodimlar har qanday sharoitda ham ortiqcha hissiyotga berilmasligi va iste'molchiga tabassum qilgan holda "Assalomu alaykum!", "Xush kelibsiz!", "Hurmatli mijoz", "Marxamat", "Raxmat", "Kechirasiz", "Sog' bo'ling" va "Qanday yordam berishim mumkin?" kabi muomala madaniyatiga doir boshqa so'zlar bilan murojaat qilishi zarur. Telefon so'zlashuvlarida ham muomala madaniyatiga rioya etishlari kerak.

**4.3** Jamiyatda barcha fuqarolarga byurokratizm, sansalorlik holatlariga yo'l qo'ymagan holda ularning millati, dini, jinsi, moliyaviy holatidan qat'iy nazar bir hil darajadagi va sifatdagi xizmatlar ko'rsatilishi lozim.

**4.4** Jamiyatga kelgan jismoniy va yuridik shaxslarning barcha savollariga, shikoyatlariga to‘liq javob berish, javobning tushunarli bo‘lganligiga ishonch hosil qilish kerak.;

**4.5** Tashrif buyurgan har bir faqaro yoki iste’molchi o‘zini obro‘li va ishonchli tashkilotda ekanligini sezishi, bu yerda xodimlarning ularga nisbatan alohida hurmat hamda qiziqish bilan munosabatda bo‘lishganini va ularni muammolarini hal qilish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solayotganini, fuqaroni qadrlayotganini his qilishi lozim.

## **5. Jamiyat xodimlarining kiyimi va ularning tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan talablar**

**5.1** Xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida Jamiyat xodimlarining tashqi ko‘rinishi iste’molchilarning Jamiyatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga undaydi, o‘zaro ishonchni ta’minlashga yordam beradi.

**5.2** Jamiyat xodimlarining kiyimi va ularning tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan talablar ilovaga muvofiq bo‘lishi kerak.

## **6. Xodimlar manfaatini himoya qilish**

**6.1** Xodimlarni xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq tahdid, haqorat, tuhmat va qonunga hilof boshqa hatti-harakatlardan himoya qilishga Jamiyat mas’uldir.

## **7. Yakuniy qoidalar**

**7.1** Jamiyat xodimi tomonidan Kodeks talablariga rioya etilishi xodimni lavozimlarga tayinlashda va kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

**7.2** Mazkur Kodeks talablarining buzulishida aybdor bo‘lgan Jamiyat xodimi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.